
YOSHLAR BANDLIGI TA'MINLANMOQDA



Tumanimizning 1-sektorida “Yoshlar daftari” va “Temir daftar”da turadigan fuqarolar bilan sektor binosi oldida mehnat qurollari va boshqa asbob-uskunalarni imtiyozli kredit asosida olish imkoniyati buyicha yarmarka tashkil etildi. Yarmarkada olib kelingan asbob va dastgohlar ko'rgazmasi, ularni imtiyozli kredit asosida olish imkoniyatlari, shartlari va boshqa masalalar buyicha so'zlashib, tushunchlar berildi.

Yarmarka davomida asbob-uskuna va dastgohlar olish istagida bo'lgan yoshlarga ATB "Agrobank"i So'x tumani filiali vakillari tomonidan hujjatlar rasmiylashtirib, kredit asosida beriladigan dastgohlar bo'yicha ma'lumotlar berildi.

Benbur mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi O'tkirjon Nishonov, Shohruz Baxodirjonov, Abdurauf Xoliqov, Tul mahallasida yashovchi Mohiraxon Ellikboyeva, Ellikboy Ellikboyevlarga imtiyozli kredit asosida motokultivator, velosiped va suv nasosi berildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2021-06-14 16:17:14